

VOHA VA CHO'L LANDSHAFTLARINI O'ZARO ALOQA VA O'ZARO TA'SIRI

Xakimov Muhammadali

Andijon davlat pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada voha va cho'l landshaftlarining tashkil topishi, shakllanishi va ularning o'xshash jihatlari va bir –biriga ta'siri rivojlanish jarayoniga ta'sir etuvchi ayrim omillar va ularning geografik tarqalishi bo'yicha ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: antropogen omil, landshaft, voha landshafti, cho'l landshafti komponent, irrigatsiya.

KIRISH

Birinchi navbatda Voha so'ziga ta'rif beradigan bo'lsak, geografik lug'atlarda "voha" atamasi lotincha so'zdan olingan bo'lib, "oasis"–dastlab Liviya cho'l va cho'llardagi aholi yashaydigan yashil manzarali bir necha joylar tushunilgan, ba'zan buta va boshqa o'simliklar o'suvchi daraxtzorlardan iborat hudud, maydonlarga nisbatan qo'llaniladigan ilmiy tushunchadir. O'zbek milliy ensiklopediyasida voha tushunchasiga cho'l va chala cho'llarda obod qilingan yerlar deya ta'rif berilgan. Voha landshaftlari antropogen landshaftlarning ajralmas qismi hisoblanadi, bu uzoq yillar mobaynida insonning xo'jalik faoliyati tufayli o'zgartirilgan hududlar hisoblanadi. Vohalarning vujudga kelishida suv ya'ni sug'orib dehqonchilik qilinadigan yerlar va insonning mehnat faoliyati bilan bog'liq muhim omil hisoblanadi. Umuman voha landshaftlarining vujudga kelishi, shakllanishi va geografik tarqalishida bir qancha omillar muhim rol o'ynaydi. Aslini olganda landshaftlar juda ko'p omillar ta'sirida rivojlanadi va shakllanadi. Ular landshaftlarda turli sifat va xususiyatlarning shakllanishida turlicha ahamiyat kasb etadi. Agar landshaftning shakllanishida ma'lum bir turdagi omil ahamiyatli hisoblansa ularning tabaqalanishi va rivojlanishida boshqa turdagi omillar, landshaftlarning o'zgarishida esa yana boshqa guruhdagi omillar yetakchi bo'lishi mumkin. Landshaftlarning hosil bo'lishi, mavjudligi, shakllanishi avvalo undagi komponentlar (relyef, tog' jinsi, iqlim, suv resurslari, o'simlik dunyosi, tuproq, hayvonot dunyosi) ning bir-biriga ta'siri va aloqadorligi natijasidir. Bu komponentlarning barchasi turli xarakterga ega. Ularning har biri o'ziga xos qonuniyatlar asosida rivojlanib kelgan. Voha landshfatlarining shakllanishini va ularning tabiiy xususiyatlarini tahlil qilishni bir qancha olimlar o'rganib kelgan va turli shaklda izohlaganlar. Ulardan biri F.N.Milkov hisoblanib, u voha landshaftlarini qishloq xo'jalik landshaftlarining dala turi tarkibiga kiritgan va O'rta Osiyodagi sug'oriladigan voha landshaftlarini tabiiy sharoiti kuchli o'zgartirilgan antropogen landshaftlarning bir turi sifatida qaragan bo'lsa, A.A.Abdulqosimov o'z kuzatuv tajribalari asosida quyidagicha ifodalaydi "Voha

landshaftlari antropogen landshaft komplekslarining zonal turi bo'lib, u inson xo'jalik faoliyati ta'sirida shakllangan agrobiotsinozlar bilan qoplangan, arid iqlimli o'lkalarda keng rivojlangan va inson tomonidan doimiy ravishda boshqarilib turiladigan yerlardir". A.N.Xodjimatov esa O'zbekistonning cho'l zonasidagi voha landshaftlarini tizim ya'ni tabiat va jamiyatning bir-biriga ta'siri natijasi deb izohlaydi. Ushbu fikrlardan ko'rinadiki vohalar antropogen landshaftlarning ajralmas qismi bo'lib, insonning ma'lum bir maqsadni ko'zlagan holda ilgari o'zlashtirilmagan cho'l va chala cho'llarda o'zining xo'jalik faoliyati olib borishi tufayli o'zgartirilgan hududlar ekanligi ma'lum bo'ladi. Vohalar asta-sekin rivojlanib bir necha bosqichlarda rivojlanib boradi.

Dastlab tabiiy landshaftlar o'zgaradi, madaniy ekin maydonlari paydo bo'ladi. Tabiatdagi o'simlik va hayvonot dunyosi sezilarli o'zgarishga uchraydi. Tuproq o'zining tabiiy holatini saqlab qoladi. Chirindi miqdori nisbatan kam, gumusli qatlam nisbatan yupqa, unumdorlik xususiyati past va agroirrigatsiya yotqiziqlari yo'qolib boradi. Vohalar shakllanishining bu bosqichida mikroiqlim xususiyatlari tabiiy landshaftlar iqlimidan unchalik farq qilmaydi. Aholi ham asta ko'chib kela boshlagan nisbatan siyrak joylashgan bo'ladi. Keyinchalik esa madaniy o'simliklar keng tarqaladi, yavvoyi holdagi o'simliklar o'z o'rnini madaniy ekinlarga bo'shatib bera boshlaydi. Hayvonot dunyosining ba'zi turlari o'zlarining yashash manzillarini o'zgartirishiga olib keladi. Chorvachilik va dehqonchilikning intensiv rivojlanishi ko'zga tashlanadi. Tuproqdagi chirindi miqdori ortib boradi, agroirrigatsiya yotqiziqlari shakllanib, chirindi saqlovchi qatlam qalinlashadi, bir so'z bilan aytganda tuproqning unumdorlik xususiyati ortib madaniylashgan tuproqlar hosil bo'ladi. Aholi zichligi nisbatan ortadi. Asosan qishloq xo'jaligi uchun xizmat qiladigan sanoat korxonalari shakllanadi. Mikroiqlim xususiyatlari o'zgaradi. Insonlar o'z ehtiyojlari uchun turli kanallar qaziydi buning natijasida havodagi namlik miqdori ortadi, yog'inlar nisbatan ko'payadi. Vanihoyat vohalarga turli xil antropogen ta'sirlar kuchayadi. Aholi zichligi keskin ortadi, tabiatdan noto'g'ri foydalanish natijasida ekologik muammolar rivojlanadi, sanoat korxonalari soni ko'payadi, yo'llar va aholi yashash manzilgohlari zichlashadi. Yovvoyi o'simlik va hayvon turlari kamayib ketadi. Ekinzorlar o'rnida turli xildagi binolar, madaniyat markazlar, kasalxonalar, bozorlar, aholi uchun zarur bo'lgan qurilishlar amalga oshiriliadi. O'rta Osiyo va O'zbekiston hududlaridagi antropogen voha landshaftlarining vujudga kelish va shakllanishiga, ko'ra ularni quyidagi yirik markazga ajratish mumkin: Janubi-g'arbiy Turkmaniston, Janubiy Turkmaniston, Janubi-sharqiy Turkmaniston, Janubiy O'zbekiston, Xorazm, Janubiy Qizilqum, Samarqand va Farg'ona kabi tarixiy geografik markazlari. Maskur markazlarning har biri o'zining vujudga kelishi va shakllanishiga ko'ra bir-biridan farq qiladi. Shulardan Samarqand tarixiy-geografik

markazi biz tadqiqot olib borayotgan hududimiz O'rta Zarafshon okrugida joylashgan. O'rta Zarafshon vohasi qadimdan vujudga kelgan va uzoq davrlar davomida shakllangan. Voha landshaftlari asosan cho'llarni insonlar tomonidan o'zlashtirishi natijasida hosil bo'ladi. Cho'l landshaftlari esa vujudga kelishi, shakllanishi va barqaror rivojlanishida, ularning makon va zamonda geografik tarqalishida bir necha omillar yetakchi rol o'ynaydi. Voha va cho'l termogidrodinamik va gidravlik jihatdan o'zaro aloqadorlikda rivojlanuvchi geotizimlardir. Voha va cho'l geotizimlari o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik va eng avvalo ularning litologik-geomorfologik sharoitlarining bir-birlariga yaqinligidadir. Ular asosan allyuvial delta, daryolarning prolyuvial-allyuvial terrasalarida, prolyuvial shleyf va konus yoyilmalarida mujassamlashgan tabiiy hududiy majmualardir. Bu geotizimlarning ma'lum qismini yoki to'lig'icha dehqonchilik ishlarida foydalanilishi ular o'rtasidagi aloqadorlikni ma'lum qonuniyatlar asosida davom etishiga olib keladi. Geotizimlar o'rtasidagi issiqlik, namlik, turli tuzlar va boshqa moddalar bilan bo'ladigan o'zaro almashinuv, avvalo yer usti oqar suvlari, sizot suvlari hamda shamol yordamida amalga oshadi. Bu aloqadorlikda voha tabiatiga atrofdagi cho'lning va vohaning cho'l tabiatiga bo'ladigan ikki taraflama ta'sirini to'g'ri aniqlash lozim. Voha geotizimlarining atrofidagi cho'l tabiatiga ta'siri. Vohalardagi ekin maydonlari, sug'orish (irrigatsiya) shoxobchalaridan gruntga sizib o'tgan suvlar voha atrofidagi cho'lda sizot suvlarining sathi va minerallashuv darajasining o'zgarishiga bevosita ta'sir etadi. O'sha hududlarda namlik miqdori ortadi. Vohaning ta'sir doirasining katta-kichik bo'lishi joyning litologik-geomorfologik tuzilishi bilan bog'liqdir.

XULOSA

Avvalo voha va cho'l landshaftlari hududalari kelib chiqishi va ularning litologik-geomorfologik sharoitlarining bir-birlariga bog'liqligidadir. Vohalar asosan cho'llarning insonlar tomonidan o'zlashtirilishi hisobiga tubdan o'zgarib hozirgi qiyofasini olgan va oldingisi umuman yo'qotgan va vohalarga aylangan hisoblanadi. Insonlar hozirda vohalardan turli maqsadlarda foydalanib kelmoqda. Voha geotizimlarining atrofidagi cho'l tabiatiga ham ta'sir qilmoqda. Vohalardagi ekin maydonlari, sug'orish (irrigatsiya) shoxobchalaridan gruntga sizib o'tgan suvlar voha atrofidagi cho'lda sizot suvlarining sathi va minerallashuv darajasining o'zgarishiga bevosita ta'sir etadi. O'sha hududlarda namlik miqdori ortadi. Vohaning ta'sir doirasining katta-kichik bo'lishi joyning litologik-geomorfologik tuzilishi bilan bog'liqdir. Shunday qilib doimiy aloqada va biriga ta'sir etib turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdullayev S.I., Nazarov M.G. Qashqadaryo havzasining antropogen landshaftlari va ularning geokologik holati/ Monografiya. Qarshi -2020 y. 133 b.

2. Alibekov L.A. Arid mintaqalarda cho'llanish muammolari / O'quv-uslubiy majmua. Samarqand, 2013. 168 b.
3. Xushmurodov F.M. Qashqadaryo havzasi vohalari agrolandshaftlarining cho'llanish jarayonini tadqiq qilish va xaritalashtirish / Dissertatsiya. Samarqand-2023 y. 78-110 b.
4. Худайназаров, Ф. Х. (2024). Кичик Бизнес Субъектлари Фаолиятини Рақамли Технологиялар Асосида Ривожлантиришнинг Меъёрий-Ҳуқуқий Асослари. *Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural And Social Sciences Scientific Journal*, 266.
5. Mukhitdinova, K. A., & Sayfutdinova, N. F. (2022). Status of development of innovative activities of industrial enterprises. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 11(5), 363-368.
6. Alisherovna, K. (2019). Investment support for the activities of motor transport enterprises and their effective utilization. *Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR)*, 8(2), 465-471.
7. Mukhitdinova, K. (2022). Increasing the Efficiency of Investment Activities of Automotive Enterprises. *International Finance and Accounting*, 2022(1), 20.
8. Mukhitdinova, K. A. (2020). Analysis of Investment Attractiveness Of The Enterprise. *Экономика и социум*, (4 (71)), 73-76.
9. Худайназаров, Ф. (2023). Исламские Финансы: Проблемы И Решения. *Экономическое развитие и анализ*, 1(8), 109-114.
10. Nabiyev, E. (2022). Complexities of Foreign Policy and the Role of Turkey in the System of International Relations. *International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding*, 9(3), 416-420.
11. Murtazaev, E. N. (2022). About the compositional structure of plot of war works. *Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities*, 12(2), 98-103.
12. Худойназаров, Ф. Х. (2024). Кичик Бизнес Субъектлари Фаолиятига Инновацион Технологияларни Жорий Этиш. *International scientific journal of Biruni*, 3(2), 178-186.
13. А.А.Абдулкосимов, Ю.Х.Абдурахмонова, К.К.Давронов Зарафшон ботиги воха ландшафтлари ва геоэкологияси. Монография. Тошкент- 2017.102-103-301-3-4-б.
14. Абдулкасимов А. Оазисные ландшафты Средней Азии и их морфологическая структура // Вопросы антропогенного ландшафтоведения. Воронеж. 1972. с. 106.